

BO'LAJAK TARIX FANI O'QITUVCHILARINING O'QUV-BILISH FAOLIYATINI FAOLLASHTIRISH ZARURIYATI

Raximov Shokir Toshtemirovich
Qarshi davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya. Maqolada bo'lajak tarix fani o'qituvchilarining o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish masalasi zamonaviy pedagogik paradigmalar, o'quv-bilish faoliyatining mohiyati, uni faollashtirishga ta'sir etuvchi pedagogik shart-sharoitlar, metodlar, vositalar, shuningdek, bo'lajak tarix o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirishda o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish muhim omil ekanligi e'tirof etiladi.

Kalit so'zlar: o'quv, bilish, faoliyat, tarix, o'qituvchi, faollik, ta'lim, kompetensiya, yondashuv, pedagogika, shart-sharoitlar, tafakkur, izlanish, shakllantirish, natija.

Аннотация. В статье признается, что проблема активизации учебно-познавательной деятельности будущих учителей истории является важным фактором формирования современных педагогических парадигм, раскрывается сущность учебно-познавательной деятельности, педагогические условия, методы, средства, влияющие на ее активизацию, а также профессиональная компетентность будущих учителей истории. история.

Ключевые слова: обучение, познание, деятельность, история, учитель, деятельность, образование, компетентность, подход, педагогика, условия, мышление, исследование, формирование, результат.

Annotation. The article recognizes that the issue of activation of educational and cognitive activity of teachers of the future history is an important factor in the formation of modern pedagogical paradigms, the essence of educational and cognitive activity, pedagogical conditions, methods, tools that affect its activation, as well as the professional competence of teachers of future history.

Key words: training, cognition, activity, history, teacher, activity, education, competence, approach, pedagogy, conditions, thinking, research, formation, result.

Kirish (Introduction). Jahon ta'lim makonida kechayotgan global o'zgarishlar, axborotlashgan jamiyatning shakllanishi hamda ta'lim mazmunining kompetensiyaviy yondashuv asosida yangilanishi pedagog kadrlar tayyorlash tizimiga yangi talablarni qo'yimoqda. Ayniqsa, umumta'lim maktablari uchun tarix fani o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida talabalarning o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish dolzarb pedagogik muammolardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Tarix fani o'ziga xos mazmun va metodologik xususiyatlarga ega bo'lib, u o'quvchilardan tahliliy fikrlash, tarixiy voqealarga xolis baho berish, sabab-oqibat aloqalarini anglashni talab qiladi. Jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichida ta'lim tizimi strategik ahamiyatga ega ijtimoiy institut sifatida namoyon bo'lib kelgan. Ayniqsa, globallashuv, raqamli transformatsiya va bilimlar iqtisodiyoti ustuvor bo'lgan hozirgi davrda ta'lim sifatini oshirish, uning mazmun va shakllarini yangilash masalasi davlat siyosati darajasidagi ustuvor vazifaga aylandi. Bu jarayonda umumta'lim va oliy ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan hamda kelajakda ish boshlaydigan pedagog kadrlarni tayyorlash, ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi alohida dolzarblik kasb etmoqda.

Ayniqsa, tarix fani o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish zaruriyati zamonaviy pedagogik muammolar qatorida yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Chunki tarix fani nafaqat o'tmish voqealarini anglash va tavsiflash, balki yosh avlodda tarixiy tafakkur, milliy o'zlikni anglash, fuqarolik pozitsiyasi va tanqidiy fikrlashni shakllantirishda muhim tarbiyaviy va ma'rifiy vazifani bajaradi. Bu esa bo'lajak tarix o'qituvchisidan chuqur ilmiy bilim, metodologik tafakkur, tahliliy qobiliyat hamda mustaqil bilim olishga tayyorlikni talab qiladi.

An'anaviy ta'lim amaliyotida ko'p hollarda talabalarning o'quv faoliyati reproduktiv xarakter kasb etib, ular tayyor bilimlarni qabul qilish bilan cheklanib qolmoqda. Bunday yondashuv esa tarix fanining mazmun-mohiyatiga, uning tahliliy va interpretatsion tabiatiga zid hisoblanadi. Zero, tarixiy bilimlar tayyor shaklda emas, balki manbalarni tahlil qilish, voqea va jarayonlarni solishtirish, sabab-oqibat aloqalarini aniqlash orqali o'zlashtiriladi. Shu bois bo'lajak tarix fani o'qituvchilarining o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish, ularni mustaqil izlanishga, ijodiy fikrlashga va tadqiqotchilikka yo'naltirish pedagogik tayyorgarlikning muhim sharti hisoblanadi.

Amalda ko'plab oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonida ma'ruzaviy, axborot yetkazishga yo'naltirilgan an'anaviy usullar ustunlik qilmoqda. Bu esa talabalarning mustaqil bilish faoliyatini cheklaydi, ularda ijodiy fikrlash va tadqiqotchilik ko'nikmalarining yetarli darajada shakllanmasligiga olib keladi. Shu nuqtai nazardan, bo'lajak tarix fani o'qituvchilarining o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish masalasini ilmiy jihatdan o'rganish va pedagogik yechimlarini ishlab chiqish zaruriyati vujudga kelmoqda.

Metodlar (Methods). Bugungi kunda ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuvning joriy etilishi o'qituvchi shaxsiga qo'yilayotgan talablarni sifat jihatidan o'zgartirmoqda. Endi tarix o'qituvchisi faqat bilim beruvchi emas, balki o'quvchilarda bilish faoliyatini tashkil etuvchi, yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi, ta'lim jarayonining subyekti sifatida maydonga chiqmoqda. Shu nuqtai nazardan qaralganda, bo'lajak tarix

o'qituvchisining o'zi ta'lim olish jarayonida faol bilish subyektiga aylanmas ekan, kelgusida o'quvchilar faolligini ta'minlay olishi qiyin bo'ladi.

O'quv-bilish faoliyatini faollashtirish pedagogik, psixologik va didaktik omillar majmui bilan bog'liq murakkab jarayondir [1]. U talabalarda o'qishga nisbatan ichki motivatsiyani shakllantirish, muammoli ta'lim, interaktiv metodlar, manba va hujjatlar bilan ishlash, tarixiy modellashtirish hamda refleksiya usullaridan samarali foydalanishni taqozo etadi. Ayniqsa, tarix fanini o'qitishda tahlil, bahs-munozara, muqoyosa va umumlashtirishga asoslangan faol metodlar talabalarning bilish faolligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, bo'lajak tarix fani o'qituvchilarining o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish masalasi milliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar bilan ham uzviy bog'liqdir. Ta'lim mazmunini milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida yangilash, tarixiy xotira va vorisiylikni ta'minlash vazifasi aynan yuqori bilish faolligiga ega, mustaqil fikrlaydigan pedagog kadrlarni taqozo etadi. Shu bois mazkur muammoni ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan chuqur o'rganish, uning pedagogik yechimlarini ishlab chiqish zamonaviy pedagogika fanining dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Bo'lajak tarix fani o'qituvchilarining o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish zaruriyati ta'lim sifatini oshirish, tarix fanini o'qitish samaradorligini ta'minlash va raqobatbardosh pedagog kadrlarni tayyorlash bilan bevosita bog'liqdir. Ushbu muammoning ilmiy jihatdan asoslanishi va pedagogik amaliyotga tatbiq etilishi ta'lim tizimining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Mazkur jarayonda umumilmiy va maxsus pedagogik tadqiqot metodlaridan foydalanish taqozo qilinadi [4, 5, 6]:

nazariy tahlil – falsafiy, pedagogik va psixologik adabiyotlarni o'rganish orqali o'quv-bilish faoliyati tushunchasining mohiyatini aniqlash;

taqqoslash va umumlashtirish – tarix fani o'qituvchilarini tayyorlashda qo'llanilayotgan an'anaviy va innovatsion ta'lim usullarini solishtirish;

pedagogik kuzatuv – talabalarning o'quv mashg'ulotlaridagi bilish faolligini tahlil qilish;

so'rovnoma va intervyu – bo'lajak tarix o'qituvchilarining o'qishga munosabati va motivatsiyasini aniqlash;

pedagogik tajriba-sinov ishlari – faol ta'lim texnologiyalarining o'quv-bilish faoliyatiga ta'sirini aniqlash.

Bo'lajak tarix fani o'qituvchilarining o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish masalasini ilmiy asoslashda metodologik yondashuvlar majmuiga tayanildi. Tadqiqot metodologiyasining nazariy poydevorini shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv, faoliyat nazariyasi hamda konstruktivistik pedagogika

g'oyalari tashkil etadi. Ushbu yondashuvlar talabani ta'lim jarayonining passiv obyekti emas, balki faol bilish subyekti sifatida qarashni taqozo etadi.

Metodologik jihatdan tadqiqotda o'quv-bilish faoliyati tarixiy-pedagogik hodisa sifatida tahlil qilinadi. Bunda bilish faoliyatining kognitiv, motivatsion, refleksiv va ijodiy tarkibiy qismlari o'zaro uzviy bog'liq tizim sifatida qaraladi [2]. Tarix fani o'qituvchisini tayyorlash jarayoni esa ushbu tarkibiy qismlarni maqsadli rivojlantirishga qaratilgan pedagogik tizim sifatida talqin etiladi. Nazariy tahlil metodi orqali pedagogika, psixologiya va tarix ta'limi metodikasi sohasidagi klassik va zamonaviy ilmiy qarashlar umumlashtiriladi. Shuningdek, modellashirish metodi asosida bo'lajak tarix fani o'qituvchilarining o'quv-bilish faoliyatini faollashtirishga qaratilgan konseptual yondashuv shakllantiriladi.

Natijalar (Results). Bo'lajak tarix fani o'qituvchilarining o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish ta'lim mazmuni, metodlari va tashkil etish shakllarining uyg'unligiga bog'liq bo'lgan murakkab pedagogik jarayondir. O'quv-bilish faoliyati faqat bilimlarni o'zlashtirish emas, balki tarixiy voqealarni anglash, talqin qilish va ularga nisbatan shaxsiy munosabatni shakllantirish jarayoni ekani asoslandi.

Tarix fanini o'qitishda bilish faoliyatining reproduktiv darajada qolib ketishi asosan ma'ruzaviy, axborotga yo'naltirilgan ta'lim ustuvorligi bilan bog'liq ekanini ko'rsatdi. Bunday sharoitda talabalar tarixiy bilimlarni tayyor holda qabul qiladi, tahlil va interpretatsiya qilish ko'nikmalari yetarli darajada shakllanmaydi.

Nazariy modellashirish asosida aniqlandiki, o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish quyidagi natijalarga olib keladi [7, 8]:

- tarixiy tafakkurning tizimli rivojlanishi;
- talabalarda mustaqil bilish ehtiyojining shakllanishi;
- tarixiy manbalar bilan ishlash kompetensiyalarining yuzaga chiqishi;
- kasbiy identifikatsiya va pedagogik refleksiyaning kuchayishi.

Shu bilan birga, faol bilish muhitida ta'lim olgan bo'lajak tarix o'qituvchisi kelgusida maktab ta'lim jarayonida ham faol o'qitish strategiyalarini qo'llashga moyil bo'lishi nazariy jihatdan asoslab berildi.

Shunga ko'ra:

1. Bo'lajak tarix fani o'qituvchilarining o'quv-bilish faoliyati darajasi ko'p jihatdan ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan metod va texnologiyalarga bog'liq ekan.
2. Muammoli ta'lim, keys-stadi, manbalar bilan ishlash, tarixiy hujjatlar tahlili, bahs-munozaralar kabi faol usullar talabalarining bilish faolligini sezilarli darajada oshiradi.
3. O'quv-bilish faoliyatini faollashtirish uchun quyidagi pedagogik shart-sharoitlar muhim ahamiyat kasb etadi:
 - ta'limda shaxsga yo'naltirilgan yondashuv;
 - talabalarining mustaqil ishlarini tizimli tashkil etish;

- tarixiy fikrlashni rivojlantiruvchi topshiriqlardan foydalanish;
- refleksiya va o'z-o'zini baholash mexanizmlarini joriy etish.

4. Faol ta'lim texnologiyalari qo'llanilgan guruhlarda talabalarning tarixiy bilimlarni chuqur anglashi, tahlil qilish qobiliyati va kasbiy motivatsiyasi yuqori ekani oydinlashdi.

Muhokama (Discussion). Bo'lajak tarix fani o'qituvchilarining o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish masalasi zamonaviy pedagogik nazariya va ta'lim amaliyoti kesishgan nuqtada joylashgan murakkab ilmiy muammo hisoblanadi. O'quv-bilish faoliyatini faollashtirish faqat metodik vositalarni yangilash bilan cheklanib qolmaydi, balki ta'lim jarayonining mazmuniy, motivatsion va qiymatliy asoslarini qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi.

Avvalo, tarix fanining epistemologik tabiatiga e'tibor qaratish zarur. Tarix — tayyor va o'zgaras bilimler yig'indisi emas, balki manbalarga tayanilgan holda voqea va jarayonlarni talqin qilish, ularning ma'nosi va ahamiyatini ochib berish jarayonidir [9]. Shu nuqtai nazardan, tarix fanini o'qitishda talabaning bilish faoliyati passiv xarakter kasb etsa, fanning ilmiy mohiyati buziladi. Bo'lajak tarix o'qituvchisi ta'lim jarayonida ana shu interpretatsion faoliyatni shaxsan boshidan kechirmas ekan, u kelgusida o'quvchilarda tarixiy tafakkurni shakllantira olmaydi.

Pedagogika nazariyasidagi faoliyatga asoslangan yondashuv qoidalarini yana bir bor tasdiqlaydi. Faoliyat nazariyasiga ko'ra, shaxs bilimni tayyor holda qabul qilmaydi, balki uni faol harakatlar orqali o'zlashtiradi [3]. Demak, bo'lajak tarix fani o'qituvchilarining o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish — ularni bilim iste'molchisi emas, balki bilim yaratuvchisi sifatida shakllantirishni anglatadi. Bu esa pedagogik tayyorgarlikning sifat jihatdan yangi bosqichini belgilaydi.

Tarix fani o'qituvchisining kasbiy kompetentligi to'g'ridan-to'g'ri uning bilish faolligi darajasi bilan bog'liq. Faol bilish faoliyatiga ega bo'lgan bo'lajak o'qituvchi tarixiy voqealarni ko'p qirrali talqin qilishga, alternativ qarashlarni tahlil etishga va manbalarni tanqidiy baholashga moyil bo'ladi. Bu sifatlar esa zamonaviy maktab ta'limida talab etilayotgan tanqidiy fikrlash, fuqarolik pozitsiyasi va tarixiy ongni shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Kompetensiya bilim, ko'nikma va munosabatlarning birligi sifatida qaralar ekan, ular faqat faol bilish jarayonidagina samarali shakllanadi. Agar ta'lim jarayoni reproduktiv usullarga asoslansa, kompetensiyalar deklarativ xarakterda qolib ketadi [10, 11]. Ayniqsa, tarix ta'limida keys-stadi, manbalar bilan ishlash, muammoli savollar va bahs-munozaralardan foydalanish faqat tashqi shakl sifatida emas, balki tarixiy mazmunni chuqur anglashga xizmat qiluvchi vosita sifatida qaralishi lozim. Aks holda, faol metodlar mazmundan uzilgan holda formal xarakter kasb etishi mumkin.

Bo'lajak tarix o'qituvchisining o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish uning kasbiy o'zligini shakllantirish jarayoni bilan chambarchas bog'liq. Faol bilish muhitida

ta'lim olgan talabada pedagogik refleksiya, kasbiy mas'uliyat va innovatsion fikrlash shakllanadi. Bu esa uning kelgusi faoliyatida an'anaviy ta'lim stereotiplarini qayta ishlab chiqishga tayyorligini ta'minlaydi.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari ta'lim tizimida faol bilish muhitini yaratish institutsional darajada qo'llab-quvvatlanishi zarurligini ko'rsatadi. YA'ni, o'quv rejalari, fan dasturlari va baholash tizimi o'quv-bilish faoliyatini rag'batlantirishga yo'naltirilmas ekan, alohida o'qituvchining sa'y-harakatlari yetarli samara bermasligi mumkin.

Bo'lajak tarix fani o'qituvchilarining o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish muammosi faqat pedagogik texnologiyalar doirasida emas, balki ta'lim falsafasi, ta'lim qadriyatlari va kasbiy tayyorgarlik konsepsiyasi doirasida qaralishi lozim. Ana shundagina tarix ta'limi jamiyatning ma'naviy va intellektual rivojlanishiga xizmat qiluvchi samarali tizimga aylanadi.

Pedagogika fanining zamonaviy konsepsiyalariga muvofiq holda tahlil qilinganda, o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish masalasi tarix fani o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligida markaziy o'rin tutishi aniqlandi. Bu jarayon faqat metodik masala emas, balki shaxsiy, qadriyatli va ma'naviy yo'nalishga ega pedagogik muammo sifatida qaralishi lozim [12].

Tarix fani tabiatiga ko'ra interpretatsion fan hisoblanadi. Shu sababli uning o'qitilishi talabaning faol bilish harakatlari sizar samarali bo'lishi mumkin emas. Agar bo'lajak o'qituvchi ta'lim jarayonida faol bilish tajribasiga ega bo'lmasa, u kelgusida o'quvchilarda tarixiy tafakkurni rivojlantira olmaydi.

Shuningdek, tarix ta'limida kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirish o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish bilan bevosita bog'liq ekanini ko'rsatdi. Bilish faolligi yuqori bo'lgan talabada kasbiy mustaqillik, innovatsion fikrlash va pedagogik mas'uliyat shakllanadi.

Ta'lim jarayonini tashkil etishda faol metodlarni mexanik joriy etish emas, balki ularni tarix fanining mazmuniy va metodologik xususiyatlariga mos holda qo'llash zarurligi ta'kidlandi [13].

Bo'lajak tarix fani o'qituvchilarining o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish faqat alohida metodlarni joriy etish bilan cheklanib qolmasligi lozim. Bu jarayon tizimli, maqsadli va ilmiy asoslangan pedagogik faoliyatni talab qiladi. Ayniqsa, tarix fanini o'qitishda talabaning manbalar bilan mustaqil ishlashi, tarixiy voqealarni interpretatsiya qilishi uning kelgusi kasbiy faoliyati uchun muhim asos yaratadi. Shu bilan birga, o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish tarix o'qituvchisining shaxsiy kasbiy rivojlanishi, pedagogik tafakkuri va innovatsion faoliyati bilan uzviy bog'liq ekanini aniqlandi.

Xulosa (Conclusion). Bo'lajak tarix o'qituvchisining o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish yuzasidan, quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

Birinchidan, bo'lajak tarix fani o'qituvchilarining o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish zamonaviy ta'lim tizimining obyektiv ehtiyoji hisoblanadi va u ta'lim sifatini oshirishning muhim shartidir.

Ikkinchidan, o'quv-bilish faoliyati tarixiy bilimlarni o'zlashtirish bilan cheklanmay, tarixiy tafakkur, tahliliy qobiliyat va kasbiy refleksiyaning rivojlantiruvchi kompleks pedagogik jarayon sifatida namoyon bo'ladi.

Uchinchidan, bo'lajak tarix o'qituvchisining faol bilish tajribasi uning kelgusi kasbiy faoliyatida o'quvchilarni faol ta'lim subyektiga aylantirish uchun mustahkam asos yaratadi.

To'rtinchidan, o'quv-bilish faoliyatini faollashtirishga yo'naltirilgan nazariy yondashuvlar tarix fani o'qituvchilarini tayyorlash tizimini takomillashtirishga xizmat qiladi va pedagogika fanining dolzarb ilmiy yo'nalishlaridan biri sifatida ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek:

- Bo'lajak tarix fani o'qituvchilarining o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish ta'lim sifatini oshirishning muhim omili hisoblanadi.
- Faol ta'lim metodlari va texnologiyalari tarix fanini o'qitishda talabalarning bilish faolligini, tarixiy tafakkurini va kasbiy kompetentligini rivojlantiradi.
- O'quv-bilish faoliyatini faollashtirishga yo'naltirilgan pedagogik shart-sharoitlarni yaratish oliy ta'lim muassasalari oldidagi ustuvor vazifalardan biri bo'lishi lozim.

Mazkur ilmiy xulosalar tarix fani o'qituvchilarini tayyorlash tizimini takomillashtirishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar (References):

1. Вербицкий А.А. Активное обучение в высшей школе. – Москва, 2018. С. 24.
2. Зимняя И.А. Педагогическая психология. – Москва, 2019. С. 18.
3. Краевский В.В. Методология педагогики. – Москва, 2020. С. 21.
4. Rakhimov Z.T., Toshtemirova S.Z. Ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni qo'llashda o'qituvchi mahoratining zaruriyati // Modern education and development. Выпуск журнала №-25 часть-3. 2025. С. 227-235.
5. Rakhimov Z.T., Toshtemirova S.Z. Teacher skills in using innovative technologies in higher education // Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi jurnali. 45-son 1-to'plam - 2025. 93-98-b.
6. Rakhimov Z.T. **The importance of developing students' academic competence in the process of modern higher education** / Current research journal of pedagogics. Volume 05 Issue 04-2024. P. 43-50. <https://masterjournals.com/index.php/crjp/article/view/1623/1469>

7. Rakhimov Z.T. Development of educational and cognitive competence as an important condition of higher education / Journal of new century innovations. Volume–66_Issue-1_December-2024. P. 38-44. <https://scientific-jl.org/index.php/new/issue/view/126>
8. Rakhimov Z.T. Features of formation of students' technological competence / “PEDAGOGS” international research journal. ISSN: 2181-4027_SJIF: 4.995. Volume-70, Issue-2, November -2024. P. 210-216. <https://scientific-jl.org/ped/issue/view/120>
9. Raximov Z.T. Oliy ta’lim jarayonida talabalarning o‘quv-bilish kompetensiyasini rivojlantirish orqali kasbiy tayyorlash / Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi. ISSN: 3030-3621. 34-son_2-to'plam_Dekabr -2024. 93-100-b. <https://scientific-jl.org/tal/article/view/4607>
10. Raximov Z.T. Zamonaviy oliy ta’lim jarayonida talabalar o‘quv-bilish kompetentligini rivojlantirishning ahamiyati / Kasb-hunar ta’limi Ilmiy-uslubiy, amaliy, ma’rifiy jurnal. 2024-yil, 4-son. 110-116-b.
11. Raximov Z.T. O‘quv-bilish kompetentligini rivojlantirish oliy ta’limning muhim sharti sifatida / Journal of new century innovations. Volume–66_Issue-1_December-2024. 133-139-b. <https://scientific-jl.org/index.php/new/issue/view/126>
12. Rakhimov Z.T. (2024). Inclusive education as a factor of ensuring equality in education. // Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences, 3(6), 100–108. Retrieved from <https://econferenceseries.com/index.php/srnss/article/view/4908>
13. Rakhimov Z.T. (2024). The importance of activating students’ independent creative activities. // Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities, 3(6), 182–189. Retrieved from <https://econferenceseries.com/index.php/icedh/article/view/4895>